IRONIYANING ETIK MOHIYATI:AXLOQIY MEZONLAR VA IJTIMOIY BAHOLASH MUAMMOSI

Abdullayeva Saodatxon Nosirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
Email: Saodatabdullayeva2702@gmail.com
Orcid ID https://orcid.org/0009-0003-0923-0021
UDK :801.8:81’1:82.01.17

Annotatsiya. Mazkur maqolada ironiyaning etik mohiyati va uning axloqiy mezonlar hamda ijtimoiy baholashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Baholash kategoriyasining nazariy asoslari hamda uning lingvistik va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ironiyaning maqsadi, qo‘llanish konteksti va kommunikativ ta’siriga ko‘ra uning ijobiy yoki salbiy baholanishi asoslanadi. Tadqiqotda ironiyaning axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy ta’sir bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi.
Kalit so‘zlar: Ironiyaning etik mohiyati, baholash kategoriyasi, axloqiy mezonlar, ijtimoiy baholash, diskurs, pragmatika, stilistika,lingvistik tahlil

ЭТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ИРОНИИ: МОРАЛЬНЫЕ КРИТЕРИИ И ПРОБЛЕМА СОЦИАЛЬНОЙ ОЦЕНКИ

Аннотация.В данной статье анализируется этическая сущность иронии и её роль в системе моральных критериев и социального оценивания. Рассматриваются теоретические основы категории оценки, а также её лингвистические и прагматические особенности. Обосновывается положительная или отрицательная оценка иронии в зависимости от её цели, контекста употребления и коммуникативного воздействия. Также показана связь иронии с этической ответственностью и социальным влиянием.
Ключевые слова: Этическая сущность иронии, категория оценки, моральные критерии, социальная оценка, дискурс, прагматика, стилистика, лингвистический анализ

THE ETHICAL ESSENCE OF IRONY: MORAL CRITERIA AND THE PROBLEM OF SOCIAL EVALUATION

Abstract. This article analyzes the ethical essence of irony and its role in moral criteria and social evaluation. The theoretical foundations of the category of evaluation, as well as its linguistic and pragmatic features, are examined. The study also substantiates the positive or negative evaluation of irony depending on its purpose, context of use, and communicative impact. Furthermore, the relationship between irony, ethical responsibility, and social influence is highlighted.
Keywords: Ethical essence of irony, evaluation category, moral criteria, social evaluation, discourse, pragmatics, stylistics, linguistic analysis

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda baholash kategoriyasi inson nutqi va tafakkurining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Bu kategoriya nafaqat lingvistik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlarini ochib beradi, balki ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi funksional imkoniyatlarini ham yoritadi. Ayniqsa, badiiy va publitsistik diskursda baholashning yashirin va ochiq shakllari nutqning ta’sirchanligini kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.Ironiya esa ana shu baholash tizimining murakkab va ko‘p qatlamli ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u tilshunoslik, pragmatika va stilistika kesishmasida o‘rganiladi. Ironiya orqali ifodalangan fikr ko‘pincha bevosita emas, balki bilvosita tarzda yetkazilib, unda ma’no va niyat o‘rtasidagi ziddiyat asosiy kommunikativ effektni yuzaga keltiradi. Shu bois ironiyaning etik mohiyati uning faqat lingvistik hodisa emas, balki ijtimoiy va axloqiy baholash bilan uzviy bog‘liq fenomen ekanligini ko‘rsatadi.G‘arb tilshunosligida baholash kategoriyasi, xususan J. Martin va P. Uaytning appraisal nazariyasi hamda S. Hanston va D. Bayberning tadqiqotlari asosida keng tahlil qilingan. Ushbu yondashuvlar baholashning semantik,

pragmatik va diskursiv jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ironiyaning ijtimoiy baholanishi va uning axloqiy mezonlari masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tiborga molikdir. "Baholash"tushunchasining tilshunoslikda qachondan boshlab shakllangani aniq belgilab bo'lmaydi. Shunga qaramay, bu hodisaga oid ma'lumotlar qadimiy qo'lyozmalarda ham uchrab turadi.G'arb tilshunosligida baho masalasi keng o'rganilgan bo'lib, tadqiqotchilar uni tahlil qilishda uch asosiy yo'nalishni ajratadilar: qiymatni aniqlash nazariyasi (appraisal theory), maqom yoki ahamiyat nazariyasi (status/relevance theory) hamda metadiskurs yondashuvi (metadiscourse) Qiymatni aniqlash nazariyasi London funksional tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u narsa va hodisalarga ijtimoiy tajriba nuqtai nazaridan baho berish hamda ularning ahamiyatini belgilashga qaratilgan. Ushbu yondashuv doirasida baholash jarayonini ifodalovchi grammatik va leksik vositalar alohida e'tiborga olinadi. Shuningdek, bu vositalardan ongli va tizimli foydalanishga ta'sir etuvchi omillar ham o'rganilib, ularning turli matnlar va rasmiy muloqotdagi faoliyati tahlil qilinadi.Bu tizimda diskursiv ma'no yetakchi o'rinni egallaydi va u uchta asosiy semantik kategoriya orqali ifodalanadi: munosabat (attitude), majburiyat yoki jalb etilish (engagement) hamda darajalanish (gradation).

Asosiy qism.J. Martin va P. Uayt ushbu tizimni shu tarzda tavsiflaydi.Mazkur tizimda munosabatlar orqali hissiyotlar, emotsiyalar, xulosalar, shuningdek, insonning xatti-harakatlari va turli hodisalarga berilgan baholar ifodalanadi. Majburiyat komponenti esa ushbu munosabatlarni nutqda qanday amalga oshirilishini ko'rsatadi. Darajalanish tizimi yordamida esa hodisalarning kuchi yoki darajasi aniqlanib, hissiy ifodaning qamrovi kengaytiriladi.Tahlil qilinayotgan modelda ta'sir (effect), hukm chiqarish (judgment) va baholash (appreciation) o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi. Ta'sir bosqichida inson his qilgan emotsiyalar va sezgilar til vositalari orqali ifodalanadi. Hukm chiqarish jarayonida esa jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga asoslanib, inson xatti-harakatlariga baho beriladi. Yakuniy bosqichda esa voqea-hodisalar va predmetlar inson hayotidagi o'rni va ahamiyatiga ko'ra baholanadi.Ironiyaning etik jihatlari, avvalo, uning maqsadi, yo'nalishi va ta'sir doirasi bilan belgilanadi.

Yana bir Britaniyalik tilshunos S. Hanston baholash jarayonining uchta asosiy funksiyasini ajratib ko'rsatadi: birinchisi — maqomni aniqlash, ya'ni obyektni boshqa hodisalar bilan solishtirib baholash; ikkinchisi — qiymatini belgilash, bunda obyekt mustaqil ravishda tahlil qilinadi; uchinchisi esa — narsa yoki hodisaning ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqotchi asosan bahoning yashirin ifodalanishini o'rganishga e'tibor qaratganligi sababli, baho bilan oddiy tasvir o'rtasidagi farqni aniqlash muammosiga duch keladi. Shu bois u baholash jarayonini uch bosqichga ajratishni taklif qiladi:

a) baholanishi lozim bo'lgan obyektlarni aniqlash va tasniflash;

b) ularning qiymatini belgilab, boshqa obyektlardan farqlash;

v) berilayotgan axborotning muhimligini aniqlash.

Mazkur bosqichlar o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Baholanayotgan obyektlar odatda diskursiv xarakterga ega bo'lib, ular ma'lum bir axborotni ifodalovchi propozitsiyalar shaklida namoyon bo'ladi. Bunday tuzilma savollar yuzaga kelishiga va xulosalar chiqarishga imkon yaratadi. Har bir propozitsiya diskurs tarkibiga kirgani sababli, tasniflangan obyektlar matn davomida takror uchrab turadi. Natijada ularning qiymati kontekstga bog'liq holda, ko'pincha yashirin tarzda ifodalanadi. Masalan, qiymat butun matn davomida shakllanishi mumkin bo'lsa, ahamiyat ayrim matn parchalarida ham namoyon bo'ladi.Hanston taklif etgan yondashuv avvalgi nazariyalardan sezilarli darajada farq qiladi[1]. Chunki bu yondashuv ko'proq alohida obyektlar va matnlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan. Oldingi tadqiqotchilar — J. Martin va P. Uayt esa asosan baholashning umumiy jihatlarini yoritishga e'tibor qaratgan. Bundan tashqari, Hanston ishlab chiqqan qiymat ko'rsatkichlari tasnifi ma'lum darajada cheklangan bo'lib, ilgari taklif qilingan modellarga to'liq mos kelmaydi.Olimaning fikricha, bahoning ko'lami va darajasi baholanayotgan obyektning xususiyatiga bog'liq. Boshqacha aytganda, obyektning maqomi uning qanday baholanayotganiga qarab belgilanadi. Baholash jarayonida subyektning nuqtai nazari ham muhim ahamiyat kasb etadi.Ingliz tilshunosi D. Bayber "nuqtai nazar" (stance) tushunchasini so'zlovchining berilayotgan axborotga nisbatan munosabati, hissiyoti, fikri hamda uning ishonchlilik darajasini ifodalash sifatida izohlaydi. Keyinchalik bu tushuncha epistemik (bilimga oid), munosabat (attitudinal) va uslub (style) nuqtai nazar turlariga ajratilgan.Epistemik nuqtai nazar axborotning

ishonchliligi, shubhaliligi yoki to‘liqligi bilan bog‘liq bo‘lsa, munosabat nuqtai nazari so‘zlovchining hissiy holati va baholovchi qarashlarini ifodalaydi. Bu jarayonda baho va emotsiya ko‘pincha birga namoyon bo‘ladi. Uslubiy nuqtai nazar esa nutq jarayonining qanday kechayotganini, ya’ni so‘zlovchi yoki yozuvchining ifoda uslubini aks ettiradi.D. Bayber va uning hamkorlari tomonidan ilgari surilgan nazariya ayrim bahsli jihatlardan xoli emas. Birinchidan, u subyektivlikni ifodalovchi barcha vositalarni emas, balki asosan grammatik birliklarni tahlil qilishga asoslanadi. Ikkinchidan, bu ko‘rsatkichlar har doim ham baholash kategoriyasiga kiritilavermaydi, bu esa ayrim tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Uchinchidan, nuqtai nazar ifodalovchi birliklarning baholash tizimiga aloqadorligini inkor etuvchi qarashlar ham mavjud. Shunday qilib, ayrim olimlar fikricha, bu birliklar faqat nuqtai nazarni ifodalovchi vositalar sifatida qaraladi.Ironiya tanqidiy vosita bo‘lishi mumkin, ammo u inson sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash darajasiga tushmasligi lozim. Qadimgi yunon falsafasida Suqrot ironiyadan suhbatdoshini kamsitish uchun emas, balki haqiqatni yuzaga chiqarish uchun foydalangan. Bu holatda ironiyaning etik mezoni — bilishga undash va ma’naviy yuksalishga xizmat qilishdir.Ironiya kimga va nima maqsadda yo‘naltirilganiga qarab axloqiy baholanadi. Agar u ijtimoiy illatlarni fosh etish, adolatsizlikni ochish yoki yolg‘onchilikni tanqid qilishga qaratilgan bo‘lsa, u ijobiy axloqiy qiymat kasb etadi. Aksincha, shaxsiy kamsitish yoki masxara qilish vositasiga aylansa, u salbiy baholanadi.Ironiyaning etikligi ko‘pincha vaziyatga bog‘liq. Bir muhitda yengil hazil sifatida qabul qilingan ifoda boshqa sharoitda haqorat sifatida talqin qilinishi mumkin. Demak, ironiyaning axloqiy mezoni uning kommunikativ muhitga mos kelishida namoyon bo‘ladi.Ironiya doimo ijtimoiy maydonda baholanadi. Uning ijobiy yoki salbiy qabul qilinishi quyidagi omillarga bog‘liq:Har bir jamiyatda hurmat, hayo, ochiqlik yoki tanqidga munosabat turlicha shakllangan. Shu sababli bir madaniyatda satirik ironiyaga keng yo‘l berilsa, boshqasida u noo‘rin deb baholanishi mumkin. Masalan, Yevropa adabiyotida ironik tanqid an’anasi kuchli bo‘lsa, Sharq adabiyotida u ko‘proq ramziy va bilvosita shaklda namoyon bo‘ladi.Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda ironiyaning talqini murakkablashgan. Yozma nutqda intonatsiya va mimika yo‘qligi sababli ironik ifodalar noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. Natijada ijtimoiy baholash keskinlashadi va ba’zan bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi. Bu esa ironiyaning etik chegaralarini yanada aniqroq belgilash zaruratini tug‘diradi.Ommaviy axborot vositalari, san’atkorlar va yozuvchilar tomonidan qo‘llanilgan ironik nutq keng auditoriya tomonidan baholanadi. Masalan, Uilyam Shekspir dramalarida ironik sahnalar jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni ochib berishga xizmat qilgan va estetik qadriyat sifatida qabul qilingan. Bunday holatda ijtimoiy baholash ijobiy tus oladi.Ironiya va haqorat o‘rtasidagi farq ko‘pincha nozik chiziq bilan ajraladi.Ushbu chegara quyidagi mezonlar orqali belgilanadi:Maqsadning ijtimoiy foydasi,shaxsiy manfaat yoki adovatning yo‘qligi,madaniy va etik me’yorlarga rioya qilish,oqibatni hisobga olish hisolanadi.

Xulosa. Agar ironik ifoda ijtimoiy ongni uyg‘otish, muammoni ko‘rsatish va tafakkurni faollashtirishga xizmat qilsa, u axloqiy jihatdan asosli hisoblanadi. Aks holda, u destruktiv nutq shakliga aylanishi mumkin.Ironiyaning etik jihatlari uning maqsadi, qo‘llanish konteksti va ijtimoiy ta’siri bilan belgilanadi. Axloqiy mezonlar ironiyaning inson qadr-qimmatini hurmat qilishi, adolat tamoyiliga xizmat qilishi va vaziyatga mos bo‘lishini talab etadi. Ijtimoiy baholash esa uni jamiyatning madaniy qadriyatlari va kommunikativ tajribasi asosida shakllantiradi.Shunday qilib, ironiyaning etik mohiyati – uning tanqidiy kuchi bilan axloqiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatda namoyon bo‘ladi. Ana shu muvozanat saqlangandagina ironik nutq jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi estetik va ma’naviy vosita sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Martin J.R., White P.R.R. The Language of Evaluation: Appraisal in English. London: Palgrave Macmillan, 2005.
2. Hunston S. Corpus Approaches to Evaluation: Phraseology and Evaluative Language. London: Routledge, 2011.
3. Biber D. Variation across Speech and Writing. Cambridge: Cambridge University Press, 1988.

4. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. London: Longman, 1999.
5. Leech G. Principles of Pragmatics. London: Longman, 1983.
6. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
7. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
8. Grice H.P. Logic and Conversation. In: Syntax and Semantics, Vol. 3. New York: Academic Press, 1975.
9. Suqrot (Platon dialoglari). Apologiya va Sokratik suhbatlar. Qadimgi yunon falsafasi manbalari.